

Karavotga chalqancha yotib, Turgenevning "Bahor suvlari" kitobini varaqlay boshladim. Kitob orasidan to'rt buklangan qog'oz ko'kragimga tushdi. Beparvolik bilan qog'ozni olib, yotgan yerimda o'qiy boshladim. Oddiy qora qalam bilak juda xunuk yozilgan, ba'zi joylari o'qib bo'lmaydigan qilib o'chirib tashlangan bu xat meni hayron qilib qo'ydi. Xat egasi, uni yo muttasil tebranib borayotgan tramvayda, yo tik turib yozganga o'xshaydi. Bir chiziqli daftar varag'idagi satrlar boshida yo'g'on-yo'g'on harflar bilan boshlanib, satrning oxiriga yetmay bir-biriga mingashib ketardi. "Nima balo, mast odam yozganmi buni", deb dilimdan o'tkazdim. Yuqorisidan ikki-uch satr o'chirib tashlangan xat shu yerdan boshlanadi:

"...Uyingizdan butunlay ketdim. Kutmang. Qaytib kelmayman. Bu xatni butunlay, qaytib kelmas bo'lib ketayotganimni sizga bildirib qo'yish uchungina yozyapman. Sababini bilishni istarsiz? Nahotki o'zingiz bilmasangiz? Qaysi bir xotin qanchadan-qancha ahdu paymonlar, orzu-umidlar bilan kirib kelgan uyini tashlab ketadi? Men ana shunday qildim. Bu mening vijdon oldidagi qarzim, haqoratlangan, oyoq osti qilingan muhabbatim oldidagi burchim edi. Esingizdam, anhor bo'yidagi ag'darilgan qari chinor tanasiga yonma-yon o'tirib, yulduzlarga termillardik. Ko'p oshiqlardan beva qolgan oyning bulutdan bulutga suzib o'tishini xo'rsinib-xo'rsinib tomosha qilardik. Sizning yelkangizga suyanib, anhor salqinidan seskanganimda kostyumingizning etagiga meni o'rardingiz. O'sha kunlar o'zimni chinakam baxtiyor deb bilardim. Anhoring narigi tomonidagi yantoqlar orasida chirillagan chigirkalarning ovozi ham qulog'imga ajoyib bir ohang bo'lib eshitilardi. Ba'zan el uxlagan sokin kechada asfalt ko'cha bo'yab olis-olislarga ketib qolardik..."

Shu yerga kelganda xatning ketma-ket uch satri o'chirilgan. Shuncha urinsam ham o'qiyolmadim.

"...Ba'zan artistlarga rahmim keladi. Ular sahnada o'z qiyofalaridan chiqib, bir necha soat boshqa odam bo'lib yashaydilar. Ularning mahoratiga qoyil qolib qarsak chalamiz. O'ylab ko'ring, bu ular uchun juda ham katta mehnat, mashaqqat emasmi? Siz-chi? Siz sahnada emas, hayotda artist bo'lib yashadingiz. O'zligingizdan chiqib, boshqa odam qiyofasiga kirdingiz. O'zidan, vujudidan, qalbidan, dunyodagi eng yaramas, iflos narsadan jirkangandek jirkanadigan odamgina shunday qiladi. Bu juda qiyin ish-ku! Umr bo'yi bir tanada ikki kishi bo'lib yashash mumkinmi, axir! Shuning uchun sizni tashlab ketdim. Hech qaytib kelmas bo'lib ketdim. To'yimiz bo'lган kunni bir eslang. Qadahlarning jarangi, hofizlarning xonishi, do'st-yorlarning qalbni titratadigan tabrik so'zlari... O'sha kunlari chinakam baxtiyor edim, xuddi bulutlar orasida suzib yurgandek edim, poyoniga yetib bo'lmas orzularim bor edi. Xuddi to'yimiz kuni, eshicingiz - mening yangi uyimning eshigi oldida bolasini ko'tarib turgan xotinning g'azab va nafrat to'la ko'zлари menga tikilganini, uning qalbida tug'yon qilayotgan hislarni payqamagan edim. Chunki men baxtiyor edim. Baxtdan entikkan kishining ko'ziga hamma narsa go'zal, hamma odam baxtli ko'rinishini bilmagan ekanman. Men baxtdan entikardim, u baxtsizlikdan pinhoniy faryod chekardi. Men baxtga yetishgan edim, u baxtni yo'qotgan edi. Endi o'ylab qarasam, u baxtni emas, baxtsizligini yo'qotgan ekan. Negaki, siz, o'zgaga baxt berolmaydigan notavon kishi ekansiz. Uning yuzlariga bemahal tushgan ajinlar, qo'ng'iroq sochlarga bemahal oralagan oqlar siz keltirgan "baxt" ekanligini endi yaxshi bilaman. Hozir shu xatni yozarkanman, xotiningizning o'sha mash'um to'y kunidagi qiyofasini ko'z oldimga keltirib, qalam tutgan qo'llarim mushtga aylanganini bilmay qolibman. Birga yurgan kechalari oyga termilib tong ottirgan paytlarimizda u mushfiq xotinning deraza oldida eshikka termilib, ma'yus, aftodahol o'tirganini o'ylaganimda, butun borlig'im zirqirab ketadi. Sizni qarg'ash uchun olam bisotidan tahqirliroq so'z topolmayman..."

Xatning davomi butunlay o'chirib tashlangan. Chiroqqa yaqinroq borib o'qishga urinib ko'rdim. Yo'q, o'n sakkiz satr ichidan faqat "insof'mi degan so'zni arang o'qiy oldim, xolos.

Tavba! Bu xatni kim yozgan? Kimga yozgan? Xayolim qochib, har bir satridan g'azab, nafrat yog'ilib turgan xat egasini bilgim keldi. Kitobni olib, xatning davomi chiqib qolarmikin degan o'y bilan uni varaqlay boshladim. Yo'q. Kitob kutubxonaniki edi. Kimdir uni beixтиyor kitob bilan topshirib yuborgan bo'lsa kerak. Uyqum qochib u notanish, alamzada xotin qalbining eng teran joylaridan otilib chiqqan qaynoq, olovli so'zlaridan ertalabgacha to'lg'andim.

Ertalab kutubxonadan bu kitobni mendan avval olgan kishini so'rardim. Kutubxonachi xotin tayinli bir gap aytmadni. Uning gapicha, universitet kutubxonasi bundan ikki yarim oy oldin saylov uchastkasiga kitoblar yuborgan, saylovdan keyin o'sha kitoblar muqovalashga berilgan ekan. Xullas, xat kimdan va kimga ekanligi ma'lum bo'limgani uchun menda qoldi. Ammo bu pand yegan jasur xotinning o'rтанib yozgan qaynoq so'zлари egasiga yetmaganidan afsuslanardim.

O'qishlar tugadi. Besh yil birga o'qigan qadrondonlar bilan xayrashadigan kunlar keldi. Ayniqsa, o'zini hammadan olib qochadigan, menga ham shubha bilan qaraydigan hamkurs Sanobardan ajralish menga juda og'ir edi. Bu xayolchan qiz negadir menga juda yoqardi. U ko'pchilik-ka kam aralashardi. Xdmkurslar bir-birimizning "miridan-sirigacha" degandek sarguzashtlarimizni, orzularimizni baham ko'rardik. Ammo Sanobar o'zi haqida, niyatları haqida lom-mim deb og'iz ochmagan. Uning tabiatni ana shunaqa edi. O'zi alohida dars tayyorlar, qayg'usini ham, shodligini ham birov bilan baham ko'rmasdi. Unga rahmim kelganidanmi, yo tabiatim og'irroq bo'lгanidanmi, har qalay, uning sokinligi menga yoqardi. Keyingi kursdagina ikkovimiz bir-birimizga yaqin bo'lib qolgandik. Hatto bir-ikki marta kinoga ham bordik. Ko'rgan kinomizda Sanobar juda ko'p yig'ladi. Kino unchalik kishini yig'latadigan darajada ham emas edi. Hayronman, Sanobar nega yig'ladi ekan!

Avgust oxirlab qolgan edi. Ertaga Sanobar Bekobodga ketadi. Men eski kasbim - gazeta ishida qolaman. Shu kuni so'nggi bor u bilan parkka bordik. Negadir u xomushroq edi. Men uning bu kayfiyatini to shu kungacha bir-birimizga dardimizni aytmaganimizdan, shundayligicha ajrashib ketishimizdan bo'lsa kerak, deb o'yladim. Har qalay, bu masalada erkaklar dadilroq bo'ladi. Dovdirab bo'lsa ham gapni o'zim boshladim. Shu paytgacha bu to'g'rida og'iz ochmaganidan o'zimni o'zim koyib, hayajon aralash sekin gapihardim. Bilmadim, gaplarimning hammasini eshitdimi, yo'qmi?

Parkda odam ko'p edi. Tantsa maydonchasi, morojniyxonalar studentlar bilan to'la. Sanobarning qo'lidan ushладим. U yalt etib menga qaradi.

- Yuring, huv anovi suv bo'yiga boramiz.

- Nega?

Bu savolga javob topolmadim.

- Yuring! - dedi Sanobarning o'zi yo'l boshlab. Suv bo'yi xoliroq edi. Simyog'ochdag'i chiroqning suvdagi aksi go'yo xanjardek anhor tagiga sanchilgandi.

- Sizni Toshkentda qoldirmoqchi edilar-ku, nega Bekobodga yuborishlarini so'radingiz?

Sanobar javob bermadi. Suvga tikilganicha bir necha daqiqa indamay o'tirdi. So'ng vazminlik bilan:

- Menga qarang, - dedi, - besh yil birga o'qidik, siz menga boshqalarga qaraganda yaqinroq bo'lib qolgansiz. - U negadir gapni gapga qovushtirolmay qynalardi. - Ko'zlariningizga qaraganimda, yuragingizda allaqanday his borligini sezib qynalaman. Gapim qo'polroq chiqsa, meni kechiring. Bekor qilyapsiz. Hali yoshsiz. O'z tengingiz bilan topishishingiz kerak. Men buni oldinroq

This is not registered version of TotalDocConverter  
 aytilishni kuchayishi. Nega shunday jumladan.

- Nega, axir sizni... nahot siz meni... Yo sizning boshqa...- dedim past ovoz bilan.

Sanobarning ko'zida yosh yiltiradi.

- Axir, men bir marta to'y ko'rganman... besh kun bo'lsa ham. Hali tortgan dardimning dog'i tanimdan ketgani yo'q.

Uch yil avval kitob orasidan ko'kragimga tushgan xatni esladim. Nahot o'sha xat bilan Sanobar orasida biron munosabat bo'lsa, nimalar deyapman, yo'g'-e...

- Siz, siz, - dedim duduqlanib, - Siz Turgenevning "Bahor suvlari"ni o'qigammisiz?

Sanobar menga savol nazari bilan qaradi:

- Nima edi?

- Xat yo'qotganmisiz?

Sanobarning ko'zlar katta-katta ochilib, lablari allanimalar deb pichirladi.

Men uning shamol to'zitgan sochlarni siladim.

- Shunaqa, - dedi Sanobar xo'rsinib, - arzon muhabbatning qurboni bo'lganman.

Uning bu gapida qanchadan-qancha alam, iztirob bor edi.

Ikkimiz svuga termilib xayol suramiz. Bahor suvlari oqib ketdi. Sovur oyining bulutlari qaldirab-guldirab tog'u toshlarga, bog'u rog'larga yomg'ir quyib o'tdi. Uning hayotbaxsh tomchilaridan anvoyi gullar unib chiqdi. Olamni bezagan, adirlarda lolaqizg'aldoq gulxanini yondirgan bu hayot tomchilarining saxiyligidan suv ichib qolgan shumg'iyalar ham bor ekanligini bilaman. Biroq ko'klam oftobining alangasiga bu pechaklar, shumg'iyalar tob berolarmikin?! Oftob ularni qovjiratib tashlamasmikin?! Albatta kuydirib tashlaydi, ishonaman.

Muhabbat ham shunday. Qalb harorati isitmagan muhabbat uzib olingan guldek juda tez qovjirab qoladi.

Yolg'on muhabbatdan zada bo'lgan Sanobarning yuragida kuyib kul bo'layotgan hislarga harir, shaffof shabada tekkandek bo'ladi.

Bu shabada uning qalbidagi kullarni to'zg'itib yuboradi. Ko'ksidagi bosib yotgan og'ir toshni muhabbatning azamat qo'li ko'tarib tashlaydi.

Daraxtlar tepasida kezib yurgan yarimta oy yaproqlar orasidan o'tib, Sanobarning goh yelkasida, goh soch o'rimlarida o'ynardi.

1960